

**INKLYUZIV TA'LIMDA PEDAGOG-PSIXLOGNING KASBIY PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**Gafarova Muhabbat Axmadovna**

*Osiyo xalqaro universiteti, magistranti*

**Elov Ziyodullo Sattorovich**

*Osiyo xalqaro universiteti dotsenti,*

*Psixologiya fanlari doktori (DSc)*

*elovziyo2021@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugun ta'lim tizimida muhim masalaga aylanib borayotgan inklyuziv ta'lim jarayoni va ushbu jarayonda pedagog-psixologning kasbiy xususiyatlari bilan bog'liq jarayonlar atroficha tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *inklyuziv, ta'lim, jarayon, sezgi, kognitiv jarayonlar, uyg'unlashmoq, tizimli jarayon, ruhiy buzilish, integratsiya.*

**ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА  
ПЕДАГОГА-ПСИХОЛОГА В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

**Аннотация:** В статье подробно анализируются процесс инклюзивного образования, который сегодня становится важным вопросом в системе образования, и процессы, связанные с этим процессом с профессиональными характеристиками педагога-психолога.

**Ключевые слова:** инклюзивность, образование, процесс, интуиция, когнитивные процессы, адаптация, системный процесс, психическое расстройство, интеграция.

**PROFESSIONAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE TEACHER-  
PSYCHOLOGIST IN INCLUSIVE EDUCATION**

**Abstract:** In the article, the process of inclusive education, which is becoming an important issue in the education system today, and the processes related to this process with the professional characteristics of the pedagogue-psychologist are thoroughly analyzed.

**Key words:** inclusive, education, process, intuition, cognitive processes, adapt, systematic process, mental disorder, integration.

Inklyuziv ta'lim hamma bolalarning bir xil mifik maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta'lim olishini anglatadi. Ya'ni imkoniyati cheklangan bola sog'lom bolalar bilan bir xil e'tiborda o'qiy olishi kerak. O'zbekistonda oilaviy sharoitidan qat'i nazar,

barcha bolalar davlat umumta'lim mакtablariga qatnaydi. Bu davlat tomonidan kafolatlangan.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunning II-bobi 9-moddasida jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiyo‘rtta va o‘rtta maxsus ta’lim tashkilotlariga inklyuziv shaklda yoki uy sharoitida yakka tartibda ta’lim oladi”.

Inklyuziv ta’lim haqida so‘z yuritilganda, uning asl mohiyatini nimaga qaratilayotgani haqida so‘z boradi. O‘zi “Inklyuziv ta’lim” nima? “Inklyuziv ta’lim” bu (ingliz tilidan olingan bo‘lib, *inclusive, inclusion*-uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma’nolarini bildiradi). Nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘sqliarni (*diskriminatsiyani*) bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar (ayrim sabablarga ko‘ra imkoniyati chelangan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat‘i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘sishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Sharqning mashhur allomalari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Abdulla Avloniyarning tarbiyasining maqsadlari har bir bola shaxsining rivojlanishiga ta’limning ta’siri to‘g‘risidagi qarashlari inklyuziv ta’lim rivojlanishining metodologik bazasi hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgan bиринчи qadamdir. Imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassalari tarkibiga qarab olinishi jahon miqyosida “inklyuziv” yoki “integratsion” ta’lim atamalari bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta’lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir.

Inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalari: Inklyuziv ta’lim tizimida qo‘yidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- ta’lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy psixolo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish;
- o‘quvchilarning ta’limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning ixtiyoylarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oiladan ajramagan holda yashash xuquqini ro‘yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Inklyuziv ta’limga kiritishning asosiy tamoyillari. Inklyuziv ta’limning ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishini talab etadi.

Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

1. Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo’lishi tamoyili.
2. Bog’lanishning mavjud bo’lishi tamoyili.
3. Markazlashtirilmagan bo’lishi tamoyili.
4. Inklyuziv ta’limda kompleks yondashish tamoyili.
5. Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.
6. Malakaviylik tamoyili.

“Ta’lim hamma uchun” Umumjahon deklaratsiyasi quyidagicha bayonet qabul qilingan: “Maktablar bolalarning imkoniyatiga qarab emas, ish sifati va maktab ta’limiga javob berishi bilan xarakterlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning huquqi ommaviy maktabda ta’lim-tarbiya olishini talab etadi;
- o’qitishning metod va metodikalari bolaning nuqsoniga qarab tanaladi;
- maktabda to’laligicha korreksion pedagogik yordam tashkil etadi;
- bolalar to‘g‘risidagi qaror kompleks tarzda qabuk qilinadi;
- bolalar har bir shaxsiy huquqi kafolatlanadi;
- inklyuziv maktablarning moddi ta’minoti yaxshilanadi;
- maktabda integratsiya tamoyiliga o’quv rejaning asosi sifatida qaraladi;

Juda ko‘plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijali kamol toptirishda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to’laligicha yo’lga qo‘yish maqsadida umumta’lim maktablarida ta’lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi.

L.S.Vigotskiy fikricha “Ta’lim tizimi shunday bo’lishi kerakki, nuqsonli bolani tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning integratsiyasini ta’minlash deb hisoblaydi va buning uchun shunday ta’lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muhtoj bola o‘qish jarayonida har tomonlama rivojlansin” deb hisoblaydi. Ya’ni L.S.Vigotskiy umumiylar va maxsus ta’limni uyg‘unlashtiradigan ta’lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim tizimida o’qitishni e’tirof etgan.

2003-yilda Respublikamizda “Ta’lim hamma uchun” Milliy dasturi ishlab chiqildi. “Ta’lim hamma uchun” dasturining Milliy rejasi YUNESKOning maslahatlari va moddiy ko‘magi bilan 2000-yildagi Dakar shartnomalariga mos bo‘lib, siyosatchilar, ta’lim tizimi, vazirlik va idoralar rahbarlari, pedagoglar, jamoat arboblari, O‘zbekiston Respublikasi uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirish muammolari bilan qiziquvchi barcha shaxslar uchun mo‘ljallangan. Mazkur rejada O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Ta’lim hamma uchun” Milliy Rejasining konseptual o‘zagi asosida isloh etish muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. XTB ta’lim markazi YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001-2003

yillarda “inklyuziv ta’lim” mavzusida seminar o’tkazib, uning tavsiyalariga asosan “Inklyuizv ta’lim resurs markazi” tashkil etildi.

Hozirgi kunga kelib respublikamiz tomonidan viloyatlardagi maktablarda tashkil etilgan inklyuziv sinflar tajriba, sinov tariqasida o‘z ish faoliyatlarini olib bormoqdalar. Inklyuziv ta’lim g‘oyasini O‘zbekistonda joriy qilish va undagi muammolarni hal qilish maqsadida turli xil chora-tadbirlar uyushtirish, matbuotaxborot vositalari orqali targ‘ibot- tashviqot ishlari bir muncha faollashdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. **Z.Elov.** Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o'rni va danning-kryuger effekti. 2021 PEDAGOGIK MAHORAT 1 (5), 143-144
2. **A.Axmedova., Z.Elov.** Maktabgacha Yoshdagi Bolalarda Uchraydigan Nutq Buzilishlari Va Ularni Yuzaga Keltiruvchi Sabablarninig Bola Ruhiyatiga Psixologik Ta'siri. 2022 RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY TADQIQOTLAR SAMMITI 1 (1, 2022 fevral), 234-237
3. **3.C.Элов.** Нутқдаги айрим нуқсонларнинг бола руҳиятига психолигик таъсири. ZAMONAVIY DUNYODA AMALIY FANLAR: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR (RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI). 2021/11/15
4. **Z.Zaripova., Z.Elov.** Diniy ta’limotlar va hadis-shaxs shakllanishida pedagogik-psixologik omil sifatida. 2024 Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (2), 64-68
5. **Z.S.Elov.** Talabalarni bilish faoliyatiga motivlashtirishning psixologik va pedagogic asoslari. 2024 TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN 2 (1), 181-187
6. **Z.Elov.** Identifikatsiya jarayoni muammoining psixologiyada o’rganilishi. 2023 ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 43 (43)
7. **З.Элов.** Мактабгача ёшдаги болаларнинг ақлий ривожланиш моделлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2023